

NAMANGAN VILOYATI NORIN TUMANI SHEVASINING O‘ZIGA XOS FONETIK, LEKSIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xoldorov Xasanboy Yo‘ldoshali o‘g‘li

**Namangan davlat universiteti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani oliy toifali o‘qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20302153>

Annotatsiya: Ushbu maqola Namangan viloyati Norin tumani shevasining kompleks lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mazkur shevaning o‘zbek dialektologiyasidagi o‘rni fonetik, leksik va morfologik sathlarda atroflicha tahlil qilindi. Norin shevasiga xos unli va undosh tovushlarning talaffuzi, unli va undosh uyqunligi (singarmonizm) tizimi, o‘ziga xos dialektal markerlar (leksika) hamda fe‘l va kelishik tizimidagi grammatik o‘ziga xosliklar ochib berildi. Maqolada, shuningdek, Norin shevasining boshqa mintaqa shevalaridan farqlanishiga e‘tibor qaratildi. Natijalar shevaning fonetik, leksik va grammatik jihatdan o‘ta boy va mintaqaviy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, bu esa o‘zbek tili lingvistik merosini saqlash va o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar. *Namangan, Norin, sheva, fonetik xususiyat, leksik qatlam, morfologik invariant, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, singarmonizm, dialektal markerlar, o‘tish shevasi.*

PECULIAR PHONETIC, LEXICAL, AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DIALECT OF NARYN DISTRICT OF NAMANGAN REGION

Xoldorov Xasanboy Yuldoshali ugli

**Senior Teacher of Mother Tongue and Literature,
Academic Lyceum of Namangan State University**

Annotation. This article is devoted to a comprehensive study of the linguistic characteristics of the dialect of the Naryn district of the Namangan region. The study analyzes the pronunciation of vowels and consonants, the vowel harmony system, unique dialectal markers (lexicon), as well as grammatical peculiarities in the verb and case systems. The article also focuses on the differences between the Naryn dialect and dialects of other regions. The results demonstrate the phonetic, lexical, and grammatical richness and regional uniqueness of the dialect, which is of great importance for the preservation and study of the Uzbek linguistic heritage.

Keywords: *Namangan, Naryn, dialect, phonetic feature, lexical layer, morphological invariant, assimilation, dissimilation, metathesis, vowel harmony, dialectal markers, transitional dialect.*

СВОЕОБРАЗНЫЕ ФОНЕТИЧЕСКИЕ, ЛЕКСИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДИАЛЕКТА НАРЫНСКОГО РАЙОНА НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Холдоров Хасанбой Юлдошали угли

**Учитель родного языка и литературы высшей категории Академического
лицея при Наманганском государственном университете**

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному изучению лингвистических особенностей диалекта Нарынского района Наманганской области. В исследовании анализируются произношение гласных и созвучий,

система сингармонизма, специфические диалектные маркеры (лексика), а также грамматические особенности в системе глаголов и падежей. Также в статье уделяется внимание отличиям Нарынского говора от диалектов других регионов. Результаты показывают фонетическое, лексическое и грамматическое богатство и региональное своеобразие диалекта, что имеет важное значение для сохранения и изучения лингвистического наследия.

Ключевые слова: Наманган, Нарын, диалект, фонетическая особенность, лексический пласт, морфологический инвариант, ассимиляция, диссимиляция, метатеза, сингармонизм, диалектные маркеры, переходный говор.

Kirish

Shevalar har bir milliy tilning jonli manbasi, asosi va tarixiy taraqqiyot ko‘zgusi hisoblanadi, zero u milliy-ma’naviy qadriyatimiz sifatida til tarixini o‘rganishda bebahodir. Aslida ham ona tili deganda xalqning jonli nutqi, ya’ni sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Sheva forscha “*ravish, tarz, yo’sin*” degan ma’nolarni bildirib, fanda o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy tilning ma’lum bir hududga oid qismini anglatadi. O‘zbek shevalarining murakkab va rang-barang tarkibga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi va hududiy joylashuvi bilan bog‘liqdir. Namangan viloyatining Norin tumani o‘zining geografik o‘rni – Andijon va Farg‘ona viloyatlari bilan bevosita chegaradoshligi hamda qadimiy o‘troq aholi etnogenezi tufayli dialektologiyada o‘ta qiziqarli va o‘ziga xos “o‘tish xarakteri” ga ega hudud sanaladi. Norin tumani shevasi unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, leksik qatlam tabiati hamda morfologik formalarning o‘ziga xosligi bilan boshqa o‘zbek shevalaridan ajralib turadi. Mazkur hudud til xususiyatlarini nafaqat fonetik, balki leksik va morfologik sathlarda ham yaxlit tizim sifatida tadqiq etish o‘zbek dialektologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Natijalar

Ushbu tadqiqot jarayonida Norin tumani hududidagi bir qancha qishloqlar (jumladan, *Xo‘jabod, To‘da, Cho‘ja, Sho‘raariq, Uchtepa* kabi aholi punktlari)da istiqomat qiluvchi turli yoshdagi mahalliy aholining jonli nutqi kuzatildi va materiallar to‘plandi. Tadqiqotning metodologik asosini lingvistik kuzatish, qiyosiy-tarixiy tahlil, dialektal matnlarni transkripsiya qilish va statistik saralash metodlari tashkil etadi. To‘plangan jonli nutqiy materiallar va dialektal faktlar o‘zbek adabiy tili me’yorlari hamda Farg‘ona, Toshkent va Janubiy voaha shevalari materiallari bilan qiyosiy-morfologik va fonetik jihatdan solishtirildi.

O‘tkazilgan keng ko‘lamli lingvistik kuzatishlar va to‘plangan materiallar tahlili natijasida Norin tumani shevasining o‘ziga xos xususiyatlari uchta asosiy sathga (*fonetika, leksika va morfologiya*) bo‘lingan holda quyidagicha aniqlandi va tizimlashtirildi:

Norin shevasining fonetik tizimi o‘zbek adabiy tilidan unli va undoshlarning talaffuz tabiati, artikulyatsiya bazasi hamda o‘ziga xos ichki fonetik qonuniyatlari bilan tubdan ajralib turadi.

1. Singarmonizm (Tovushlar uyg‘unligi) va unlilar transformatsiyasi. Lab garmoniyasi (lab singarmonizmi): o‘zakdagi lablangan unli (o‘, u) ta’sirida keyingi affikslar tarkibidagi unli tovushlar ham o‘zgarib, lablanadi. Masalan: *o‘g‘lim – ulum, ko‘nglim – ko‘glum, kelibdi – kelupti*.

2. Proteza (So‘z boshida unli va undoshlarning orttirilishi): ayrim so‘zlar boshida adabiy tilda mavjud bo‘lmagan unli yoki undoshlarning orttirilishi shevaning o‘ziga xos artikulyatsion bazasidan dalolat beradi. Masalan: *ilon – yilon, igna – yigna yoki yiyina*.

3. Assimilyatsiya (Tovushlarning moslashishi). Norin shevasi jonli nutqida unli va undoshlarning o‘xshab ketishi yoki bir-birlariga singishi hodisasi juda faoldir. Bu holat quyidagi tizimli turlarga bo‘linadi:

Progressiv assimilyatsiya (oldingi tovushning keyingisiga ta’siri): *ketdi – ketti, ekgan – ekkan, ishga – ishka, oshgan – oshkan, qurishdi – qurishti*.

Regressiv assimilyatsiya (keyingi tovushning oldingisiga ta’siri): *tuzsiz – tussiz, kelyapmiz – kelyappiz, boryapmiz – boryappiz*.

To‘liq assimilyatsiya (tovushlarning bir-biriga aynan moslashishi): *suvni – suvvi, nonvoy – novvoy, ishda – ishta*.

To‘liqsiz assimilyatsiya (kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlarning qisman moslashishi): *tanbur – tambur, shanba – shamba*.

4. Dissimilyatsiya, metateza va eliziya hodisalari. Dissimilyatsiya (undosh tovushlardagi noo‘xshashlik): bir xil yoki o‘xshash artikulyatsiyali tovushlarning uzoqlashishi: *zarur – zaril, devor – duvol, ko‘ylak – ko‘ynak*.

Metateza (so‘z tarkibida undoshlarning o‘rin almashishi): *yomg‘ir – yog‘mir, daryo – dayro, tuproq – turpoq, to‘g‘ramoq – to‘rg‘amoq*.

Eliziya (tovush tushishi): ikki ko‘rinishga ega bo‘lib, qo‘shma so‘zlar talaffuzida unlining tushishi: *bora oldi – boroldi, ko‘ra oldi – ko‘roldi*. Ikkinchisi, so‘z tarkibidagi kuchsizlangan undoshning tushib qolishi: *bo‘lsang – bo‘sang, kelsang – kesang, ushlamoq – ushamoq*.

Epenteza (tovush orttirilishi): so‘z o‘rtasida ohangdorlikni ta’minlash uchun undosh orttirilishi: *soat – sohat, doim – doyim, necha – neycha*.

5. Pozitsion fonetik o‘zgarishlar. so‘z boshida: t va s undoshlarining ch ga o‘zgarishi kuzatiladi: *tushunarli – chunarli, soch – choch, sochiq – chochiq*.

So‘z oxirida: q fonemasi g‘ ga, k esa g ga almashadi: *yo‘q – yo‘g‘, baliq – balig‘, bo‘lak – bo‘lag*.

Chuqur til orqa undoshlari munosabati: x – q va q – x almashishi: *tuxum – tuqum, to‘qson – to‘xson, vaqt – vaxt*. Shuningdek, -ng undoshi so‘z oxirida o‘ta chuqur til orqa undoshi sifatida urg‘u bilan talaffuz qilinadi: *kelding – [keldin]*.

Leksik xususiyatlar va o‘ziga xos dialektal markerlar tahlili. Norin shevasining leksik tarkibi o‘zining mikro-mintaqaviy xususiyatlari, qishloq xo‘jaligi va kundalik turmush so‘zlari bilan adabiy til va boshqa voha shevalari lug‘at boyligidan sezilarli darajada farq qiladi.

1. Hududiy xoslangan lokal markerlar (Eksklyuziv so‘zlar) Norin shevasini boshqa ko‘plab o‘zbek shevalaridan ajratib turuvchi eng asosiy lingvistik markerlar aniqlangan:

“Bayda” va “Shayda” hodisasi: adabiy tildagi bu yerda, u yerda so‘zlari o‘rniga Norin shevasida muntazam ravishda bayda va shayda kabi maxsus formalar ishlatiladi. Bu holat uni Toshkent yoki Samarqand shevalaridan keskin ajratib, sof vodiy shevalari guruhiga yaqinlashtiradi.

“Baqa” va “Manaqqa” tizimi: adabiy tildagi bu yoqqa birikmasi Norin shevasida baqa (masalan: “baqa kel”) tarzida talaffuz qilinadi va bu eng xarakterli belgilardan biridir. Boshqa ko‘plab o‘zbek shevalarida (masalan, janubiy shevalarda) bu ko‘rsatkich bu yoqqa yoki bujaqqa ko‘rinishida saqlangan. Mana bu yoqqa birikmasi esa manaqqa shaklini oladi.

“Ashi” va “Mashi” ko‘rsatkichlari: adabiy tildagi ana shu, mana shu so‘zlari Norin jonli nutqida kuchli qisqarishga uchrab, ashi va mashi shaklida faol qo‘llaniladi.

2. Tematik guruhlar bo‘yicha leksika, qarindoshlik terminlari: adabiy tildagi amma yoki xola so‘zlari o‘rniga yosh jihatdan katta ayollarga nisbatan umumiy opa so‘zi, oilada akaga nisbatan esa ba‘zi qishloqlarda dada yoki aka terminlari qo‘llanilishi kuzatiladi.

Morfologik xususiyatlar va grammatik formalar tahlili. Morfologik sathda Norin shevasi soʻz turkumlari, affiksatsiya tizimi va grammatik formalarning qoʻllanish chastotasi boʻyicha oʻziga xos invariantlarga ega.

1. Feʼl turkumidagi qisqarishlar va oʻzgarishlar Norin shevasi feʼl formalarining ixchamlashuvi nuqtayi nazaridan oʻta qiziqarli material beradi:

Hozirgi zamon feʼlining qisqargan shakllari: harakat davomiyligini ifodalovchi va koʻmakchi feʼllar vositasida yasaladigan adabiy tildagi formalar Norin shevasida kuchli fonetik-morfologik oʻzgarishga uchraydi: *boʻlaveradi – boʻloʻradi, kelaveradi – keloʻradi, boraveradi – boroʻradi*. Bu yerda a+v+e tovushlar kompleksining oʻrniga lablangan uzun [oː] unlisining yuzaga kelishi barqaror morfologik hodisadir.

Harakat feʼllarining assimilyatsiyasi: nutqda -yap affiksi shaxs-son qoʻshimchalari bilan qoʻshilganda quyidagicha transformatsiyalanadi: *boryapman – boryamman, aytyapman – aytyamman*. Oʻtgan zamon uchinchi shaxsda -di qoʻshimchasi koʻp hollarda jarangsizlashadi: *keldi – ketti, oldi – opti*.

2. Kelishik affikslarining variantdorligi Norin shevasida kelishik qoʻshimchalarining qoʻllanilishida adabiy tildan farqli variantlar uchraydi: Qaratqich va Tushum kelishiklarining oʻzaro singishi:

Jonli tilda qaratqich kelishigi (-ning) va tushum kelishigi (-ni) koʻpincha bir xil shaklda -ni (yoki assimilyatsiyalashgan variantlarda -di /-ti) shaklida qoʻllaniladi. Masalan, “maktabni binosi” (adabiy tilda: maktabning binosi), “suvvi ichdi” (adabiy tilda: suvni ichdi).

Joʻnalish kelishigi: -ga qoʻshimchasi oldingi undoshning jarangsizligiga qarab mutloq moslashadi: *maktabga – maktabka, ishga – ishka*.

3. Olmoshlar tizimidagi xususiyatlar. Kishilik olmoshlarining turlanishi: *menga olmoshi manga, senga olmoshi sanga* shaklida, chuqur til orqa “ng” unlisi yordamida shakllanadi. Koʻrsatish olmoshlarining lokal tizimi: yuqorida tahlil qilinganidek, u, bu, ana shu, mana shu olmoshlari sintaktik va semantik vazifasiga koʻra bayda, shayda, ashi, mashi koʻrinishida morfologik barqarorlik kasb etgan.

Norin tumani shevasi oʻzbek dialektologiyasida asosan “yoʻqlovchi” (Fargʻona-Toshkent) shevalar guruhiga kirsa-da, oʻziga xos “oʻtish xarakteri” bilan ajralib turishi yuqoridagi uchta sath tahlilida oʻz isbotini topdi. Uning asosiy farqlari va oʻrni quyidagilarda namoyon boʻladi:

“Bayda” va “Shayda” qoʻllanilishi: Norin shevasida adabiy tildagi bu yerda, u yerda soʻzlari oʻrniga bayda, shayda shakllarining ishlatilishi uni Toshkent yoki Samarqand shevalaridan keskin ajratib, sof vodiy shevalari guruhiga yaqinlashtiradi.

“Baqa” tizimi: adabiy tildagi bu yoqqa birikmasining baqa tarzida talaffuz qilinishi Norin shevasining eng xarakterli va unikal belgilaridan biridir. Boshqa koʻplab oʻzbek shevalarida bu koʻrsatkich asl holicha yoki boshqa dialektal koʻrinishda uchraydi.

Lab singarmonizmi: oʻzbek tilining Toshkent va ayrim shahar shevalarida singarmonizm deyarli yoʻqolgan boʻlsa, Norin shevasida lab singarmonizmi (oʻgʻlim – ulum) hali ham jonli va faol saqlanib qolgan.

Undoshlar almashishi: Soʻz boshidagi t undoshining ch ga (tushunarli – chunarli) yoki s undoshining ch ga (sochiq – chochiq) oʻzgarishi Norin shevasini qipchoq lahjalari bilan qisman yaqinlashtiradi, biroq u oʻzining unli va ohang tizimi bilan baribir oʻtroq shevalar guruhida qoladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyati Norin tumani shevasining tovush tizimi, soʻz boyligi va grammatikasi oʻrganilganda, bu hudud tilining oʻzbek tili lahjalari ichida juda oʻziga xos

o‘ringa ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Norin shevasi qo‘shni Andijon va Farg‘ona viloyatlari tillari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa-da, faqat shu yerlik aholiga xos bo‘lgan eng asosiy so‘zlar va gapirish uslublari orqali boshqa joylardan ajralib turadi. Mahalliy xalqning kundalik muloqotini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, odamlar gaplashganda so‘zlarni imkon qadar qisqartirib, tez va oson aytishga harakat qiladi. Shu bilan birga, katta shahar shevalaridan farqli o‘laroq, Norin qishloqlarida tilimizning qadimiy qonuniyatlari va xususiyatlari hali ham buzilmasdan, sof holatda saqlanib qolgan. Ushbu tadqiqot natijalari tuman aholisining o‘ziga xos gapirish madaniyatini belgilash bilan birga, vaqt o‘tishi bilan unutilib borayotgan til boyliklarimizni va milliy merosimizni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. “O‘zbek dialektologiyasi” T.J.Enazarov, V.A.Karimjonova, M.S.Ernazarova, Sh.S.Mahmadiyev, K.G.Rixsiyeva. Toshkent – 2013.
2. “O‘zbek dialektologiyasi” B. To‘ychiboyev, B. Xasanov. Toshkent – 2004. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
3. “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” Ahmad Ishayev. Toshkent – 2009. “Fan” nashriyoti.
4. <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/51765/32871/57078>
5. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari” Sh.Sirojiddinov. Toshkent – 2022. “Donishmand ziyosi” nashriyoti.